

**YOSHLAR MA'NAVIYATINING RIVOJIDA KITOBXONLIKNING O'RNI
VA AHAMIYATI**

Ergashev Humoyun Samad o'g'li

Qashqadaryo viloyati Kitob tumani

70-umumiy o'rta ta'lim maktabi o'qituvchisi

Kitob azal-azaldan insonning eng yaqin do'sti, eng sadoqatli hamrohi bo'lib kelgan. Vaqt o'tib moddiy boyliklarning barchasi eskirishi, yaroqsiz holga kelishi mumkin. Ammo bilim manbai bo'lgan kitob hech qachon o'z qadrini yo'qotmaydi. Aksincha vaqt o'tgani sayin uning qimmati yanada ortib boradi. Bejizga biz qadimgi kitoblar, tarixiy qo'lyozmalarni qimmatli manba deb atamaymiz. Axir ular zamonlar sinovlarida toblangan bebaho boylik hisoblanadi. Bugungi axborotlashgan jamiyatda balki bu boyliklarning qadri tom ma'noda yo'qolib borayotgandek tuyilar, ammo haqiqiy kitobxon uchun bu boylikning qadri hayotining mazmuni bilan barobardir.

Kitob bu barchamizga charog'on yo'lni ko'rsatishini, ma'naviy olamimizni shakllantirishni, kelajakdagi to'g'ri yo'lni tanlashga yordam beruvchi, insoniyat tomonidan yaratilgan eng buyuk kashfiyotdir. Kitob haqida har qancha gapirish, uning sifatlarini soatlab maqtash mumkin. Sababi, eng yaqin do'st, eng zarur hamroh bo'lgan kitob, insoniyat kashf etgan ixtirolarning eng buyugi va eng qadrlisi, zamonlar o'tsada, o'z o'rnini hech nimaga bo'shatib bermagan mo'jizadir. Sababi kitob orqali asrlar davomida insoniyat tomonidan yaratilgan yuksak axloqiy-ma'naviy bilimlar avlodlarga yetkaziladi. Ayniqsa, bolaligidanoq kitobga mehr qo'ygan insonlarning jamiyatda o'z o'rnini, odamlar orasida obro'-e'tibori alohida bo'ladi. Bugun bolasining kitob o'qimasligidan, televizor-u telefondan bo'shamasligidan noliyotgan otionalarning o'zlari kitob o'qirmikan, bolalariga har kuni bo'lmasada oyda, yilda bir marta kitob sovg'a qilarmikan? Bu savollar hozirgi kuning eng dolzarb muammolaridan biri deyish mumkin. Sababi bugungi globallashuv jarayonlari yoshlarimizni turli yot g'oyalardan asrash, ularda mafkuraviy immunitetni shakllantirish bilan bog'liq qator dolzarb masalalarni qo'yimoqda. Ayniqsa, diniy eksremizm, ommaviy madaniyat, narkomaniya kabi illatlarning tarqalishi yoshlar tarbiyasida amalga oshirilayotgan ishlarimizga yanada mas'uliyat bilan yondashishni taqozo etadi. Barchaga ayonki, hayotda inson ongi uchun g'oyalar kurashi tugamaydi. Shu boisdan har bir insonda, ayniqsa, yoshlarda mafkuraviy immunitetni hosil qilish har davrlardagidan ham muhim bo'lib qoldi. Zero, O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov aytganlaridek: "Men yosh avlodimizga, mening bolalarimga qarata bo'sh kelmanglar, ertangi kun bizniki, marra bizniki, deb bejiz, asossiz aytmayman. Buning chuqur ma'no mazmuni shundaki, vaqt, yillar o'tishi bilan bizning safimizni kim to'ldirmoqda? Avvalo, zamonaviy bilim va kasb-hunarlariga ega

bo‘lgan, yangicha, mustaqil fikrlaydigan, mamlakatimizning ertangi kuni uchun masuliyatni o‘z zimmasiga olishga, o‘zini namoyish etishga qodir bo‘lgan navqiron o‘g‘il-qizlarimiz. Ko‘zlari yonib turgan bunday yoshlarimizni yana qayerda- qaysi davlat, qaysi yurtida topish mumkin?!”

Kitobxonlikda kitobni tanlay bilish juda ham muhim omil hisoblanadi. “Albatta, kitobdan kitobning farqi bor. Shunday kitoblar borki, ming yillar davomida saralanib, yig‘ilib, insoniyat madaniyatining xazinasini tashkil etgan. Lekin shunday kitoblar ham borki, ulardan eng katta naf - nosvoy o‘rab sotish - aks holda zarar keltirishi mumkin. Xullas, so‘zlar, jumlar, formulalar, illyustratsiyalar, axborotlar yig‘indisi shaklan kitob bo‘lishi mumkin, amaliy naf keltiradigan qo‘llanmalar ham ko‘p, ammo bu degani hali kitob emas; kitob – badiiy kashfiyot mahsuli, ruhiyat sabog‘idir”¹.

Bugungi globallashuv sharoitida johil kimsalar insonning ongi va ruhini, ma'naviyatini, ma'rifatini egallashning yangicha usullarni o‘ylab topshmoqdalar. Ayni paytda “ommaviy madaniyat”, egotsentrizm va erkinlik niqobi ostidagi axloqsizlik falsafasi ta'siri ham zo‘rayib bormoqda. “Ommaviy madaniyat” dunyoda ko‘plab kishilarning “mavhum dunyo”, virtual dunyoga ongsiz ravishda kirib qolishiga sabab bo‘lmoqda.

Kuzatuvchi-tadqiqotchilar, olimlarning hisob-kitobiga ko‘ra, hozirgi kunda yer yuzi aholisining 10 foizi virtual dunyoga kirib, internet qaramligiga duchor bo‘lgan. Bularning ichida kattagina qismini yoshlar tashkil etishini hisobga oladigan bo‘lsak, yoshlar orasida kitobxonlik madaniyatini oshirish naqadar muhim ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Bu haqida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning quyidagi fikrlari ahamiyatga molik: “Odamlarni ongu tafakkuri, dunyoqarashini o‘zgartirish, ma’naviy saviyasini, yuksaltirish haqida ko‘p gapiramiz. Lekin bu borada eng oddiy va eng ta’sirchan vosita – bu kitob emasmi? Men shunga aminman – kitobsiz taraqqiyotga, yuksak ma’naviyatga erishib bo‘lmaydi. Kitob o‘qimagan odamning ham, millatning ham kelajagi yo‘q”². Shu ma’noda O‘zbekiston Respublikasi amaldagi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ushbu dolzarb vazifaning ertangi kun uchun nechog‘lik ahamiyatli ekanligini hisobga olgan holda 2017-yil 12 yanvarda “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ibot qilish bo‘yicha komissiya tuzish to‘g‘risida”³gi farmoyishga imzo chekdi hamda bu borada yuzaga kelgan muammolarni kompleks hal qilishga alohida urg‘u berdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2019-yil 19-mart kuni yoshlarga e’tiborni kuchaytirish, ularni madaniyat, san’at, jismoniy tarbiya

¹ http://www.ziyouz.com/index.php?option=com_content&task=view&id=8246-ma'lumotlari asosida tayyorlandi

² Sh. Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. T.: O‘zbekiston, 2017.

³ <http://www.uza.uz//> O‘zbekiston Axborot Agentligi rasmiy sayti. 2017-y. 12-yanvar.

va sportga keng jalb etish, ularda axborot texnologiyalaridan foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish, yoshlar o‘rtasida kitobxonlikni targ‘ib qilish, xotin-qizlar bandligini oshirish masalalariga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi. Mazkur videoselektor yig‘ilishda 5 ta muhim tashabbus ilgari surilib, uning to‘rtinchi yo‘nalishi yoshlar ma‘naviyatini yuksaltirish, ular o‘rtasida kitobxonlikni keng targ‘ib qilish bo‘yicha tizimli ishlarni tashkil etishga yo‘naltirilgan. Bu jarayonda kitobxonlikni ommalashtirish, unga bolalar va yoshlarni kitobga oshno qilish, respublikamiz kutubxonalarida mutolaani rag‘batlantirish, kitobxonlik va kitob savdosini rivojlantirish, soha uchun kadrlar tayyorlash hamda malakasini oshirish tizimini takomillashtirish, kitob o‘qish holatini monitoring qilish bo‘yicha chora-tadbirlarga alohida ahamiyat bermoqda. Undan tashqari O‘zbekiston Respublikasi amaldagi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbuslari bilan yurtimizda har yili ming-minglar yoshlarni qamrab olayotgan “Yosh kitobxon” tanlovi o‘tkazilmoqda. O‘zbekiston prezidenti Sh.Mirziyoyevning “Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma‘naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz ”- degan fikrlari buning yaqqol isbotidir. Zero, yoshlar masalasi – kelajak masalasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. http://www.ziyouz.com/index.php?option=com_content&task=view&id=8246- ma‘lumotlari asosida tayyorlandi
2. Sh. Mirziyoyev. Buyuk kelajagimzni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. T.: O‘zbekiston, 2017.
3. <http://www.uz.gov.uz/> O‘zbekiston Axborot Agentligi rasmiy sayti. 2017-y. 12-yanvar.
4. Hafiza Karimova. Dilnoza Mo‘minova Kitobxonlikka keng yo‘l. Kutubxona.uz. Ilmiy ommabop jurnal. № 3 (39) 2018.